

O'zbekiston aholisining umumiy daromadlari

2026-yil yanvar-iyun oylari bo'yicha dastlabki ma'lumot

- I. Aholining umumiy daromadlari to'g'risida ma'lumot
- II. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi
- III. Respublika va hududlar kesimida aholi umumiy daromadlari tarkibi
- IV. Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi
- V. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi
- VI. Transfertilardan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi
- VII. Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi
- VIII. Aholining umumiy daromadlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Aholining umumiy daromadlari to'g'risida ma'lumot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida aholining umumiy daromadlari **618,3 trln** so'mni tashkil etdi. Aholi daromadlari bo'yicha real o'sish sur'atlarini hisoblashda narx omillari ta'sirini chiqarib tashlash maqsadida, inflyatsiya ko'rsatkichlaridan biri – iste'mol narxlari indeksi (INI)dan foydalaniladi. Iste'mol narxlarining o'zgarishi sababli o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil etdi.

Aholining umumiy daromadlari

2026-yil yanvar-iyun

	Hajmi	Nominal o'sish sur'ati, % da	Real o'sish sur'ati, % da
Aholining umumiy daromadlari, trln so'm	618,3	116,6	109,2
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, mln so'm	16,1	114,5	107,3

2026-yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar **16,1** mln so'mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o'sish sur'ati **114,5 %** ni va real o'sish sur'ati **107,3 %** ni tashkil etdi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari hajmi \(choraklik\)](#)

[Aholi jon boshiga umumiy daromadlari hajmi \(choraklik\)](#)

[Aholi jon boshiga umumiy daromadlari real o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

[Aholi umumiy daromadlari real o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)

II. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida, aholi jon boshiga o'rtacha umumiy daromadlar bo'yicha Toshkent shahrida (**45 155,2** ming so'm), Navoiy (**21 678,1** ming so'm) va Buxoro (**17 327,8** ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Aksincha, Surxondaryo (**10 908,6** ming so'm), Namangan (**11 427,8** ming so'm), Sirdaryo (**11 442,0** ming so'm) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi (**12 234,7** ming so'm) hamda Qashqadaryo (**12 546,5** ming so'm), Jizzax (**12 719,3** ming so'm), Farg'ona (**12 726,4** ming so'm), Samarqand (**13 341,3** ming so'm), Andijon (**13 915,0** ming so'm), Xorazm (**14 387,2** ming so'm) va Toshkent (**15 502,8** ming so'm) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlar bo'yicha o'rtacha respublika darajasidan quyi ko'rsatkichlar qayd etildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi

2026-yil yanvar-iyun

	Hajmi, ming so'm	Real o'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi	16 112,0	107,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12 234,7	113,0
Andijon	13 915,0	107,0
Buxoro	17 327,8	104,9
Jizzax	12 719,3	105,4
Qashqadaryo	12 546,5	102,3
Navoiy	21 678,1	107,0
Namangan	11 427,8	112,6
Samarqand	13 341,3	104,5
Surxondaryo	10 908,6	101,5
Sirdaryo	11 442,0	101,5
Toshkent	15 502,8	105,4
Farg'ona	12 726,4	102,8
Xorazm	14 387,2	101,3
Toshkent sh.	45 155,2	114,9


Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahrida (**14,9 %**), Qoraqalpog'iston Respublikasida (**13,0 %**) va Namangan viloyatida (**12,6 %**) kuzatildi.

Shu bilan birga Andijon (7,0 %), Navoiy (7,0 %), Toshkent (5,4 %), Jizzax (5,4 %), Buxoro (4,9 %), Samarqand (4,5 %), Farg'ona (2,8 %), Qashqadaryo (2,3 %), Sirdaryo (1,5 %), Surxondaryo (1,5 %) va Xorazm (1,3 %) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

III. Respublika va hududlar kesimida aholi umumiy daromadlari tarkibi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarni o'z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlar (jami aholi umumiy daromadlarining 63,1 %) dan shakllandi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 6,4 %, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 3,8 %, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 26,7 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi 2026-yil yanvar-iyun



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida birlamchi daromadlarning ulushi](#)

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlarning ulushi](#)

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi](#)

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlarning ulushi](#)


Hududlarning aholi umumiy daromadlari tarkibida mehnat faoliyatidan olingan daromadlari (yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar)ning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (77,6 %) kuzatildi. Aksincha, Buxoro, Surxondaryo, Andijon, Farg'ona, Xorazm hamda Samarqand viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan past ko'rsatkichni tashkil etdi.

Respublika bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste'mol uchun o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar va mol-mulkdan olingan daromadlarning

ulushi sezilarli darajada bo'lmasa-da, Toshkent shahrida bunday daromadlarning ulushi **18,5 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, transfertlardan olingan daromadlarning ulushi Samarqand, Xorazm, Andijon, Farg'ona, Surxondaryo, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida aholi umumiy daromadlariga nisbatan **30 %** dan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lsa, Navoiy viloyatida mazkur daromad ulushi eng past, ya'ni **14,3 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha aholi umumiy daromadlari tarkibi
2026-yil yanvar-iyun



IV. Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida aholining umumiy daromadlari tarkibida yollanma ishchilarning daromadlari **29,3 %** ni tashkil qildi. Joriy davrda yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati **124,7 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **6,8 %** ga o'sishini ta'minladi.

Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati va ulushi

2026-yil yanvar-iyun

	Yollanma ishchilar daromadlarining o'sish sur'ati, % da	Umumiy daromadlar tarkibida yollanma ishchilar daromadlarining ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	124,7	29,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	113,6	24,4
Andijon	123,2	19,6
Buxoro	120,7	20,5
Jizzax	118,4	22,4
Qashqadaryo	115,0	17,3
Navoiy	120,6	44,8
Namangan	118,6	19,2
Samarqand	119,4	17,2
Surxondaryo	118,2	19,4
Sirdaryo	112,3	28,4
Toshkent	119,0	31,5
Farg'ona	112,1	18,7
Xorazm	117,0	19,5
Toshkent sh.	135,4	53,0

V. Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi

Joriy davrda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati **117,1 %** ni tashkil etib, aholi umumiy daromadlari nominal hajmining **5,7 %** ga o'sishini ta'minladi. Hududlarda mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida **53,0 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati **115,7 %** ni tashkil etdi.

Xuddi shunday Qashqadaryo viloyatida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi **45,9 %** ni va o'sish sur'ati **111,3 %** ni tashkil etdi hamda Namangan viloyatida mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi **45,0 %** ni va o'sish sur'ati **140,3 %** ni tashkil etdi.

**Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan
daromadlarning o'sish sur'ati va ulushi**
2026-yil yanvar-iyun

	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning o'sish sur'ati, % da	Mustaqil ravishda band bo'lishdan olingan daromadlarning ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	117,1	33,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	136,5	40,6
Andijon	120,8	40,6
Buxoro	113,5	41,8
Jizzax	115,7	53,0
Qashqadaryo	111,3	45,9
Navoiy	112,2	32,8
Namangan	140,3	45,0
Samarqand	111,6	37,7
Surxondaryo	112,8	41,3
Sirdaryo	109,0	37,1
Toshkent	113,3	41,0
Farg'ona	115,0	39,3
Xorazm	113,5	36,4
Toshkent sh.	121,8	10,4

**VI. Transfertlardan olingan daromadlarning
o'sish sur'ati va ulushi**

Aholining umumiy daromadlari tarkibida transfertlardan olingan daromadlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu daromadlar ijtimoiy transfertlar va boshqa joriy transfertlarni o'z ichiga oladi.

2026-yilning yanvar-iyun oylari ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan nominal o'sish sur'ati **109,2 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda aholining umumiy daromadlari hajmida transfertlarning ulushi **26,7 %** ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, transfertlardan olingan daromadlarning **32,0 %** ini ijtimoiy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qilgan bo'lsa, **68,0 %** ini boshqa joriy transfertlardan olingan daromadlar tashkil qildi.

Ijtimoiy transfertlar tarkibida pensiyalar eng ko'p ulush – **84,6 %** ni tashkil qilgan bo'lsa, nafaqalar **13,8 %** ni, stipendiyalar **1,6 %** ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylari bo'yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida (boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi) respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o'tkazmalarining ulushi **18,2 %** ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha umumiy daromadlar tarkibida respublika tashqarisidan
kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining ulushi**
2026-yil yanvar-iyun


Samarqand	26,8 %	Namangan	18,9 %
Xorazm	26,5 %	Qoraqalpog'iston Resp.	15,4 %
Andijon	26,3 %	Toshkent sh.	13,7 %
Farg'ona	24,6 %	Sirdaryo	12,7 %
Surxondaryo	23,3 %	Jizzax	7,9 %
Buxoro	21,7 %	Toshkent	5,5 %
Qashqadaryo	20,2 %	Navoiy	5,0 %

**VII. Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan
olingan daromadlar ulushi**

2026-yilning yanvar-iyun oylari dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, aholining umumiy daromadlari hajmida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlarning ulushi **57,6 %** ni tashkil etdi.

Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar Jizzax (**68,4 %**), Qashqadaryo (**64,0 %**), Namangan (**64,0 %**), Buxoro (**62,8 %**), Samarqand (**62,0 %**), Farg'ona (**61,5 %**), Toshkent (**61,4 %**) va Andijon (**60,3 %**) viloyatlarida sezilarli ulushni egalladi. Toshkent shahri (**46,2 %**) va Navoiy viloyatida (**45,9 %**) ellik foizdan kam ulushni tashkil etdi.

**Umumiy daromadlar tarkibida kichik tadbirkorlikdan
olingan daromadlar ulushi**
2026-yil yanvar-iyun



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik tadbirkorlikdan olingan daromadlar ulushi \(hududlar bo'yicha\)](#)

VIII. Aholining umumiy daromadlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Aholining umumiy daromadlari doimiy yoki takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda, uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan pul va natura shaklidagi tushumlardan tashkil topadi.

Aholi umumiy daromadlarini hisoblashda Milliy statistika qo'mitasi hisoboti ma'lumotlaridan, shuningdek, muntazam ravishda statistika organlari tomonidan o'tkazib boriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklarining iqtisodiy faoliyati bo'yicha hamda Jahon banki tomonidan tavsiya etilgan metodologiya asosida olingan uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan, bundan tashqari Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Markaziy bank, Xalq banki, Soliq qo'mitasi tomonidan aholiga hisoblangan daromadlar, ijtimoiy to'lovlar va soliq to'lovlari to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, qismlarga ajratish maqsadida umumiy daromad qoidaga ko'ra – "birlamchi daromad" va "transfertlardan olingan daromadlar"ga bo'linadi, bu o'z navbatida bandlik holati yoki ijtimoiy ta'minot tizimiga bog'liq holda institutsional o'zgarishlarning ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Metama'lumot uchun havola:

[Aholi umumiy daromadlari](#)

[Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi statistikasi va
kambag'allikni baholash boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent sh.
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Bog'lanish uchun: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (12-61)

